



O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI

VOL. 3 ISS: 2 (2026)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА

INSURANCE



№	MUNDARIJA	Page
1.	QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASIDA AKTUAR HISOBLARNI QULLASH VA RIVOSHLANTIRISH MASALALARI <i>Nurullaev Abdulaziz Sirojiddinovich</i>	5
2.	SUG'URTA KOMPANIYALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA XORIJ TAJRIBASI <i>Nosirov Jasur Tursunpulotovich</i>	9
3.	ESG TAMOYILLARI ASOSIDA SUG'URTA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Yusupov Akbar Haydarovich</i>	14
4.	SUG'URTA SOHASIDA INNOVATSION MARKETING VA RAQAMLI REKLAMA STRATEGIYALARINI JORIY ETISH YO'NALISHLARI <i>Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich, Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	18
5.	MIJOZLAR QAMROVINI OSHIRISH UCHUN SUG'URTA KOMPANIYALARIDA TIZIMLI MARKETING STRATEGIYALARINI AMALGA OSHIRISH <i>Raxmonberganov Surojbek Uktamboy o'g'li</i>	21
6.	O'ZBEKISTON SUG'URTA TASHKILOTLARI FAOLIYATIDA KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMINING HOLATI: MAVJUD MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI <i>Xasanov Farrux Ravshanovich</i>	25
7.	PENSIYA SUG'URTASINI AMALIYOTGA JORIY ETISHNING ZARURIYATI VA DOLZARBLIGI <i>Yo'ldoshova Aziza Muzaffar qizi</i>	28
8.	BANK XIZMATLARINI SUG'URTALASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI <i>Tog'ayniyazov Shohzodbek Ural o'g'li</i>	30
9.	O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORIDA KOMPANIYALARNING MOLIYAVIY KO'RSATKICHLARI DINAMIKASI <i>Iminova Nurjahon Qodirjon qizi</i>	34
10.	QISHLOQ XO'JALIGIDA SUG'URTA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH <i>Djumayev Jonibek O'rinovich</i>	38
11.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПЕРЕСТРАХОВОЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ СТРАХОВОГО СЕКТОРА <i>Муминова Ансора Улдузбек кизи</i>	42
12.	СОВРЕМЕННЫЕ ДРАЙВЕРЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ КОРПОРАТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ В СТРАХОВЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ <i>Жиянова Наргиза Эсанбоевна, Зохидова Диёра Улдузбек кизи</i>	45
13.	O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI SUG'URTASI BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI <i>Madiyev Abbas Nosirovich</i>	50
14.	QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINING XUSUSIYATLARI VA ULARNI ILMIY TASNIFLASH METODOLOGIYASI <i>Qo'ldoshev Qamariddin Mansurovich</i>	53
15.	O'ZBEKISTONDA SUG'URTA TASHKILOTLARI TO'LOV QOBILIYATINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI <i>Xattabov Murodulla Batirovich</i>	56
16.	KORXONALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MOLIYAVIY BOSHQARUVNING AHAMIYATI <i>Muratova Saodat Igamnazar qizi</i>	59
17.	TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI <i>E.I.Ergashev, Qarayev Anvar Botirovich</i>	63
18.	O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASINI RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI <i>Kuldashv Jahongir Qamariddinovich</i>	67
19.	BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	71
20.	MILLIY IQTISODIYOTNI KREDITLASHDA TIJORAT BANKLARINING ROLI <i>Nazarov Qilich Xolmuradovich, Toyirov Yunus Alamovich</i>	73
21.	A SYSTEM OF INDICATORS FOR ENSURING THE ECONOMIC SECURITY OF COMMERCIAL BANKS UNDER INCREASING SYSTEMIC RISK <i>Malikova Dilrabo Muminovna</i>	76

22.	IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHDA HUDUDIY MARKETINGNING FUNKSIONAL O'RNI VA AHAMIYATI <i>Mukhammadieva Nodira</i>	79
23.	XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON RESURLARIGA QILINGAN XARAJATLAR SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODOLOGIYASI <i>Usmanova Nigina Marupovna</i>	84
24.	НАЛОГОВАЯ РЕФОРМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАК ФАКТОР РОСТА СПРОСА НА УСЛУГИ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА СРЕДИ МАЛОГО БИЗНЕСА <i>Холбеков Расул Олимович</i>	88
25.	O'ZBEKISTON TASHQI MEHNAT MIGRATSIYASI: IQTISODIY TA'SIRLAR, INSON KAPITALI VA REINTEGRATSIYA MUAMMOLARI <i>Ismatova Shoxsanam Abdulaziz qizi</i>	92
26.	O'ZBEKISTONDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL ASOSLARI <i>Berdibayev Fayzulla Zariybayevich</i>	95
27.	ASOSIY KAPITALGA O'ZLASHTIRILGAN INVESTITSIYALAR UZOQ VAQT BARQAROR FOYDA KELISHI KAFOLATI <i>Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich</i>	98
28.	SUG'URTA KAPITALIDAN INVESTITSIYA SIFATIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA BAHOLASH (DEA MODELI ASOSIDA) YO'LLARI <i>Kenjayev Ilhom G'iyozovich</i>	101
29.	RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ORQALI INDIVIDUAL SPORTCHILARNI TAYYORLASH TIZIMI BOSHQARUVI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI TAHLILI <i>Junaydullayev Mels Asliddin o'g'li</i>	105
30.	TOSHKENT SHAHRIDA ANHOR KANALI BO'YLAB OSMA KABINALI JAMOAT TRANSPORT TIZIMINI YARATISH KONSEPSIYASI <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li, Kamolidinov Muhibillo Shokirjon o'g'li</i>	109
31.	SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISHNI ME'YORLASHTIRISHNING USLUBIY JIHLARI <i>Ergashev Abrorbek Raxmatulla o'g'li</i>	112
32.	METROLOGIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY JIHLARI <i>Rakhmatillaev Nodirjon Yo'ldashvaevich</i>	114
33.	AN INTEGRATED RISK-BASED MODEL FOR ASSESSING THE EXTERNAL ENVIRONMENT OF SMALL ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: IMPLICATIONS FOR THE INSURANCE MARKET <i>Djumabayeva Dilobar Asatillayevna</i>	116
34.	UY-JOY NARXLARINI HISOBLASHDA HEDONIK REGRESSIYA FORMULASIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI <i>Tog'ayeva Dildora Akramovna</i>	120
35.	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАЛОГОВОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ КЛАССИЧЕСКИХ И СОВРЕМЕННЫХ ПРИНЦИПОВ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ <i>Ахоров Зариф Орипович</i>	123
36.	RAQAMLI SOLIQ TIZIMLARINI JORIY ETISH VA ULARNING IQTISODIY TA'SIRI <i>Tuychiyev Sherxon Shuxrat o'g'li, Xubbimov Sherzod Jamshidovich</i>	126
37.	SOLIQQA TORTISHNING MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARGA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLILLAR ASOSIDA <i>Toshnazarova Lola Shuxratillayevna, Karimov Mardon Akram o'g'li</i>	129
38.	TURIZMDA INNOVATSIYALARNING HAYOTIYLIK SIKLI VA ULARNING BOZORGA CHIQUISH BOSQICHLARI <i>Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi</i>	133
39.	RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ JOYLARIDA TURIZM XIZMATLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH <i>Xalimov Shaxboz Xalimovich</i>	136

“O‘ZBEKISTON SUG‘URTA BOZORI” JURNALI TAHRIR KENGASHI A‘ZOLARI

1. Teshabayev To‘lqin Zakirovich (Kengash raisi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, i.f.d. prof.).
2. Fayziyev Orifjon Olimovich (Kengash raisi o‘rinbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktor o‘rinbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich (O‘zbekinvest eksport-import sug‘urta kompaniyasi AJ Bosh direktori, i.f.d. prof.).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d., prof.).
5. Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, i.f.d. prof.).
6. Xudoyqulov Sadirdin Karimovich (TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy tadqiqot markazi direktori).
7. Xalilov Oybek Nasirovich (O‘zbekiston sug‘urta bozori professional ishtirokchilari Uyushmasi Kengash raisi).
8. Qo‘ldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida professori, i.f.d., Bosh muharrir).
9. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Moliya” kafedrasida mudiri, i.f.d. prof.).
10. Shennayev Xo‘jayor Musurmanovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida mudiri, DSc, prof.).
11. Boyev Habibullo Ismoilovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, i.f.d.).
12. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, i.f.d.).
13. Merident Randles (FSA, MAAA. Prinsipal & Consulting Actuary. Senior Consultant, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
14. Ong Xie (FIA, FSAS. Program Manager, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Pronouns: She/Her).
15. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU “Yashil iqtisodiyot” kafedrasida professori, i.f.d.).
16. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU magistratura dekan muovini, i.f.d.).
17. Maxmudov Akbar Abduxamidovich (Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti rektori, PhD, dotsent).
18. Axrorov Zarif Oripovich (TDIU Samarqand filiali “Moliya, soliq va bank ishi” kafedrasida mudiri, i.f.d., dotsent).
19. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishlash bo‘limi boshlig‘i, i.f.n. dots.).
20. Raxmatullayev Botirjon Abduxamidovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti. Akademik faoliyat bo‘yicha prorektor PhD, dotsent).
21. Musaxonzoda Ikromjon Sobirxon o‘g‘li (TMC institute “Milliy ta‘lim yo‘nalishlari akademik faoliyat va ilmiy ishlar” bo‘yicha prorektor, PhD).
22. Hasanov Xayrulla Nasrullayevich (TDIU Besh tashabbus markazi bo‘lim boshlig‘i, PhD).
23. Kenjayev Ilxom G‘iyozovich (TDIU magistratura dekan muovini, PhD, dots.).
24. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida professor v.b., i.f.n.).
25. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD. Tahririyat kengashi kotibi).
26. Agzamov Avazxon Talgatovich (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida professori, PhD).
27. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
28. Xamdamiyev Shoh-Jaxon Raxmat o‘g‘li (TDIU “Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar” kafedrasida dotsenti, PhD).
29. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (“Ma‘mun” universiteti “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, PhD).
30. Abduturapova Dildora Farxodjon qizi (“Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish” bo‘limi bosh mutaxassisi, PhD).
31. Abdusattarova Dildora Baxodirovna (TDIU “Soliq va soliqqa tortish kafedrasida” dotsenti).
32. Nosirov Jasur Tursunpulotovich (Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti “Akademik faoliyat va registrator” departamenti rahbari, PhD, dotsent).
33. Adilova Gulnur Jorabayevna (TDIU “Sug‘urta ishi” kafedrasida dotsenti, PhD.).
34. Malikova Dilrabo Mo‘minovna, (TDIU Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, PhD).
35. Bobomurotova Manzura Panji qizi (TDIU “Soliq va soliqqa tortish” kafedrasida assistenti, PhD).



BANK TIZIMI BARQARORLIGI IQTISODIY RIVOJLANISH GAROVIDIR

Nazarov Qilich Xolmuradovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
Email: Kilichnazarov447@gmail.com

Toyirov Yunus Alamovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali "Moliya, soliq va bank ishi" kafedrasida dotsenti, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori
Email: toyrovyunus@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi jahon iqtisodiyotining globallashuv harayonida tijorat banklari xizmat turlarini rivojlantirishda va milliy iqtisodiyot rivojida roli oshirishda tijorat banklarining resurslari yetarilishiga hamda ularning likvidligiga keng e'tibor qaratilmoqda. Tijorat banklari tomonidan ko'rsatilayotgan bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish hamda tezkorligi va natijadorligini oshirish orqali tijorat banklarining investitsion jozibadorligini oshirish zarurati tugdirmoqda.

Kalit so'zlar: bozor, raqobat, turg'unlik, inqiroz kredit, bozor, strategiya, infratuzilma, aktiv, kapital, depozit, kredit portfeli, tijorat.

Abstract: In the process of globalization of the modern world economy, great attention is paid to the sufficiency of commercial bank resources and their liquidity in the development of commercial bank services and increasing their role in the development of the national economy. It is necessary to increase the investment attractiveness of commercial banks by expanding the range of banking services provided by them, as well as increasing their efficiency and effectiveness.

Keywords: market, competition, crisis, credit, market, strategy, infrastructure, asset, capital, deposit, loan portfolio, commerce.

Абстрактный: В процессе глобализации современной мировой экономики большое внимание уделяется достаточности ресурсов коммерческих банков и их ликвидности в развитии видов услуг коммерческих банков и повышении их роли в развитии национальной экономики. Необходимо повысить инвестиционную привлекательность коммерческих банков за счет расширения спектра банковских услуг, оказываемых коммерческими банками, а также повышения их оперативности и результативности.

Ключевые слова: рынок, конкуренция, кризис, кредит, рынок, стратегия, инфраструктура, актив, капитал, депозит, кредитный портфель, коммерция.

Kirish (Введение/Introduction).

So'nggi yillarda O'zbekiston bank tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat tomonidan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish uchun bir qator tadbirlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son va 2020-yil 12-maydagi «2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida»gi PF-5992-son Farmonlari, 2023-yil 18-avgustdagi «Davlat ishtirokidagi korxonalar va tijorat banklarini isloh qilish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-283-son, qarorlari buning yaqqol namunasidir[1-4].

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi (Literature review, Анализ литературы)

Tijorat banklarida kredit faoliyatning samaradorligi va ularni rivojlantirish hamda baholash masalalari bilan ko'plab xorijiy hamda mahalliy iqtisodchi olimlar shug'ullanishgan. Mazkur masala bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borgan xorijlik iqtisodchi olimlardan: G.S. Panova, I.Z. Yarigina, A.I. Bolonin, Nazarchuk, N. P., A.S.Selishev va boshqalar o'z ilmiy ishlarida tadqiqotlar olib borishgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan A.A.Omonov, T.M.Qoraliev, Sh.Abdullaeva, I.R.Toymuhamedov, R.R.Tojiyev, A.A.Azlarova, N.R.Bazarova, N.G'.Sattorova va boshqalarning ilmiy ishlarida kreditlashning nazariy va amaliy jihatlarini tadqiq qilgan.

G.S. Panova, I.Z. Yarigina, A.I. Bolonin va b. "Bank tizimining holati har doim, barcha mamlakatlarda mamlakatning rivojlanish darajasi, uning iqtisodiyoti barqarorligi ko'rsatkichidir. Darhaqiqat, bank tizimi (mamlakat iqtisodiy tizimining bir qismi sifatida) ko'tarilish va pasayish, turg'unlik va inqiroz davrlarini yengib o'tib, siklik tarzda rivojlanadi" degan fikrni bildirishadi[5].

N.P.Nazarchuk, o'z tadqiqotida "Kredit tizimining fundamental (asosiy) bo'g'ini - bu kreditning o'zi bo'lib, u kreditor va qarz oluvchi o'rtasidagi o'ziga xos munosabat, shuningdek uning harakat chegaralari

va qonunlarini ifodalaydi. Ushbu bo'g'in kreditning muhim xususiyatlarini aks ettiradi va boshqa elementlarning faoliyatini belgilab beradi. U, shuningdek, kredit munosabatlari subyektlarining faoliyatini ham qamrab oladi" degan fikrni bildirishadi [6].

A.S.Selishev, "Iqtisodiyotni tartibga solish vositasi sifatida davlat bank tizimi orqali foiz stavkalarini differensiyalash (turlicha belgilash) orqali qarz oluvchilarning kreditlarga kirish imkoniyatini boshqarishi mumkin. Imtiyozlar yaratish orqali esa ayrim tarmoqlar va hududlarning ustuvor rivojlanishi rag'batlantiriladi[7].

Kreditning iqtisodiyot rivojida ahamiyatini ortiqcha baholab bo'lmaydi. Uning ta'siri kuchli richag ta'siriga o'xshaydi; uning kashf etilishi g'ildirak itirosi va olovdan foydalanishni o'rganish bilan bir qatorda turadi" degan fikrni keltiradi [7].

A.A.Omonov, T.M.Qoralievlar "Zamonaviy iqtisodiyotda kredit muhim moliyaviy element sifatida mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining ajralmas qismi hisob lanadi. Kredit va kredit munosabatlarining vujudga kelishi va rivojlani shining asosida tovar ishlab chiqarish, yanayam aniqroq qilib aytadigan boisak - kapital muomalasi va aylanishi yotadi" degan fikrni bildirishadi [8].

Sh.Z.Abdullaeva "Kreditning mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, kredit - iqtisodiy kategoriya bo'lib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning aniq bir ko'rinishi sifatida yuzaga chiqadi. Kredit har qanday ijtimoiy munosabat emas, balki ijtimoiy ishlab chiqarish mahsulati, qiymatning xarakati, qarz beruvchi va qarz oluvchi o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalovchi kategoriyadir" deb keltiradi [9].

I.R.Toymuhamedov, R.R.Tojiyev, A.A.Azlarova, N.R.Bazarova, N.G'.Sattorova, Kreditning mohiyatini uning ichki belgilarini ochib berishga qaratilgan. Kreditning mohiyatini ochish - bu uning sifatlarini, kreditning muhim tomonlarini, uning iqtisodiy munosabatlar tizimining bir elementi sifatida ko'rsatuvchi asoslarni bilish demakdir deb aytib o'tishadi [10].

Tadqiqot metodologiyasi (Methods/Методы)

Tadqiqotni olib borishda analiz va sintez, induksiya va deduksiya, statistika va taqqoslash kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results/Анализ и результаты)

Tijorat banklarining kreditlari respublika iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta'minlashning zaruriy shartlaridan biri hisoblanadi, shu sababli, 2024-2026 yillar davrida respublika tijorat banklarining kredit va depozit operatsiyalarini tahlil qilganimizda bank tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilayotganining guvohi bo'lishimiz mumkin. Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi-ki, so'nggi yillarda respublika bank tizimida sezilarli islohotlar amalga oshirilib, moliyaviy barqarorlik va bozor mexanizmlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, tijorat banklarining kredit va depozit operatsiyalari hajmi yildan-yilga oshib borayotgani iqtisodiyotdagi ijobiy o'zgarishlarni aks ettiradi. Ushbu jadvalda 2024-2026 yillar davomida bank tizimidagi asosiy ko'rsatkichlar qiyosiy ravishda keltirilgan.

1-jadval**Tijorat banklari bo'yicha kredit va depozitlari to'g'risida ma'lumot [11]**

Ko'rsatkich	2024yil	2025yil	2026yil	2026 yilda 2024 yilga nisbatan o'sish
Jami kreditlar	471 406	533 121	604 002	+132 596
Jismoniy shaxslar	148 621	177 532	220 283	+71 662
Yuridik shaxslar	322 784	355 589	383 720	+60 936
Jami depozitlar	241 687	308 692	417 258	+175 571
Jismoniy shaxslar	86 345	122 421	160 401	+74 056
Yuridik shaxslar	155 342	186 272	256 857	+101 515
Davlat banklari kreditlari	333 298	366 731	404 469	+71 171
Davlat banklari depozitlari	124 358	154 511	212 671	+88 313
Boshqa banklar kreditlari	138 107	166 391	199 533	+61 426
Boshqa banklar depozitlari	117 329	154 181	204 588	+87 259

Tahlil qilinayotgan davrda jami kreditlar hajmi izchil o'sish tendensiyasiga ega bo'ldi:

01.01.2024 yil 471,4 trln somni, 01.01.2025 yil holatiga 533,1 trln so'mni, 01.01.2026 yil holatiga 604,0 trln so'mni tashkil qildi, ya'ni, ikki yil ichida kreditlar hajmi 132,6 trln so'mga oshib, bu o'sish banklar tomonidan iqtisodiyot tarmoqlarini faol moliyalashtirish davom etayotganini ko'rsatdi. Kreditlar tarkibida, jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar 148,6 trln so'mdan 220,3 trln so'mgacha oshgan, yuridik shaxslar ulush ham yuqori bo'lib, 322,8 trln so'mdan 383,7 trln so'mga etgan. Bu holat aholi va biznes sub'ektlarini kreditlashga bo'lgan talab yuqori ekani, bu esa aholi va iste'mol kreditlari bozorining kengayib borayotganini anglatadi.

Bank tizimi resurslar bazasining asosiy manbai bo'lgan depozitlar o'sishi quyidagicha bo'ldi:

Foydalanilgan adabiyotlar (Literatury/References):

- 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi,
- 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi", //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi,
- 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-sonli "O'zbekiston - 2030" strategiyasi farmoni, //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi,
- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2026 yil 26 dekabr //president.uz/uz/lists/view/8834
- "Banki va bankovskiy biznes v globalnoy ekonomike": monografiya / G.S. Панова, И.З. Ярыгина, А.И. Болонин [и др.]; под общей редакцией Г.С. Пановой; Московский государственный институт меж дународных отношений (университет) Министерства иностранных дел Российской Федерации, кафедра «Банки, денежное обращение и кредит».—Москва: МГИМО-Университет, 2020.—879,

01.01.2024 yil 241,7 trln somni, 01.01.2025 yil holatiga 308,7 trln so'mni, 01.01.2026 yil holatiga 417,3 trln so'mni tashkil qildi, bu esa o'z navbatida kredittlar o'sishidan ham yuqori sur'atlarni, ya'ni ikki yil davomida 175,6 trln so'mni tashkil etdi. Bu holat aholi va korxonalarining bank tizimiga bo'lgan ishonchining oshganini ko'rsatdi. Davlat banklari bilan xususiy banklar o'rtasidagi holatni tahlil qilganimizda, davlat ulushi mavjud bo'lgan banklar kredit qo'yilmalari 333,3 trln so'mdan 404,5 trln so'mga oshgani, ularning depozitlari 124,4 trln so'mdan 212,7 trln so'mgacha ko'paygan, Shu bilan birga, boshqa (xususiy va xorijiy) banklar ham o'sganini ko'ramiz. Bu esa bank tizimida raqobat kuchayib borayotganini ko'rishimiz mumkin. Jadval ma'lumotlariga ko'ra, yirik banklarni tahlil qilganimizda, eng yirik kredit hajmiga ega banklar qatoriga O'zmilliy bank (105382 mlrd som), Agrobank (81108 mlrd so'm) va O'zsanatqurilish (64936 mlrd so'm) larni ko'rishimiz mumkin, bular o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotining strategik tarmoqlarini moliyalashtirishda muhim o'rinni egallaydi.

Depozitlar bo'yicha Kapital bank (44355 mlrd so'm) alohida ajralib turibdi.

Boshqa banklar kesimida o'sish tendensiyasini kuzatganimizda, ayrim banklar Anor bank, TBS bank va Hamkorbank kabi banklar kredit va depozitlar hajmini oshirganini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, Oktobank va Uzum bank kabi banklarda depozit mablag'lari o'sishi juda yuqori ekanligini kuzatamiz. Bank tizimidagi 2024-2026 yillar davomidagi kredit va depozitlar tahlillari shuni ko'rsatdiki, bank aktivlari barqaror o'sganligi, depozitlar hajmi kreditlarga qaraganda ko'proq o'sganligini, aholining bank tizimiga ishonchi oshib aholi mablag'lari bank tizimiga faol jalb etilganligi va xususiy banklarning roli asta-sekinlik bilan oshib borayotganligini ko'rish mumkin.

Xulosa (Conclusion/Заключение)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, olib borilgan qiyosiy tahlillar natijasi shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston bank tizimi so'nggi yillarda barqaror rivojlanish bosqichiga o'tganligi, kredit va depozit operatsiyalari hajmining o'sishi milliy iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy faollikning oshayotganidan darak bertadi. Ayniqsa, depozitlar bazasining yuqori sur'atlar bilan o'sishidan bank tizimi resurs bazasining o'sib mustahkamlanayotganini ko'rish mumkin. Shu bilan birgalikda, davlat banklari ulushining asta-sekin kamayib borishi va xususiy banklar faolligining oshishi bozor mexanizmlarining kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Kelajakda raqobat muhitining yanada rivojlanishi, raqamli banklar xizmatlarini ko'paytirish va aholi ishonchini oshirish orqali butun bank tizimining samaradorligini oshirish mumkin.

Olib borilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- Xususiy va raqamli banklarni qo'llab quvvatlash.
 - Aholi depozitlarini rag'batlantirishni kuchaytirish.
 - Banklar likvidligini ta'minlash bo'yicha olib borilayotgan ishlarni kuchaytirish.
 - Kredit portyfelini diversifikatsiya qilish
 - Moliyaviy texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish.
- Umuman olganda, bank tizimining barqaror rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli rivojlanishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

[2] с. — (Научная школа МГИМО / ред. совет серии: А.В. Торкунов /ред./ и др.) ISBN 978-5-9228-2202-2

- Назарчук, Н. П. "Банковское дело" [Электронный ресурс]: учебное пособие / Н. П. Назарчук. – Тамбов: Издательский центр ФГБОУ ВО «ТТТУ», 2023. – 1 электрон. опт. диск (CDROM). – Системные требования: ПК не ниже класса Pentium II; CD-ROM-дискковод; 00,0 Mb; RAM; Windows 95/98/XP; мыш. – Загл. с экрана. ISBN 978-5-8265-2548-7
- Селишев А.С. Денги. Кредит. Банки: учебник - 2-е изд., перераб. и доп. - Москва: Проспект, 2021. - 304 с. ISBN 978-5-392-21542-3
- Пул va banklar: Darslik/ A.A.Omonov, T.M.Qoraliev; - T.: "Iqtisod Moliya", 2018. - 384 b
- Кредит va kreditlash amaliyoti: Монография / Ш.З.Абдуллаева; - T.: «Iqtisod-Moliya», 2017. - 368 b
- I.R.Toymuhamedov, R.R.Tojiyev, A.A.Azlarova, N.R.Bazarova, N.G'.Sattorova. Pul va banklar. Darslik. -T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi», 2021 yil, 408 b. ISBN 978-9943-7422-8-4